

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ish uchun parazitologiya va uning asoslari yuzasidan ma'lumotlar bayon etilgan qo'shimcha adabiyotlar tavsiya etiladi. Mustaqil ish uchun beriladigan vazifalar fakultativ va individual xarakterga ega bo'lib, talabani yo'nalishiga bog'liq jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgan.

Mustaqil ish uchun belgilangan mavzularni talabalar mustaqil ravishda ko'rsatilgan adabiyotlar yordamida o'zlashtirib joriy, oraliq nazorat shaklida yoki darslardan tashqari vaqtlarda referat yoki muloqot tarzida topshiradilar.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
 - Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
 - Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
 - Maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
 - Talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
 - Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
 - Masofaviy ta'lim.
 - Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:
1. Odamlarda parazitlik qiladigan soxta oyoqlilarning muhim vakillari, umumiy tavsifi, sistematik o'rni va keltirib chiqaradigan kasalliklari
 2. Gelmintlar to'g'risida umumiy tushuncha. Gelmintlar keltirib chiqaradigan kasalliklar. Gelmintozlarga qarshi kurash. Profilaktik chora-tadbirlar.
 3. Sestodsimonlarning tuzilishidagi ayrim belgilari. Muhim vakillari, tuzilishi, rivojlanishi.
 4. O'simliklarda parazitlik qiluvchi chuvalchanglar. Muhim vakillari, ularning rivojlanish sikllari. Partenogenez.

Mustaqil ta'limni soatlarda taqsimoti

№	Мустақил таълим шакллари	Ҳajmi(soat)
1	Nazariy, laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	24
2	Odamlarda parazitlik qiladigan soxta oyoqlilarning muhim vakillari, umumiy tavsifi, sistematik o'rni va keltirib chiqaradigan kasalliklari.	6
3	Gelmintlar to'g'risida umumiy tushuncha. Gelmintlar keltirib chiqaradigan kasalliklar. Gelmintozlarga qarshi kurash. Profilaktik chora-tadbirlar.	6
4	Sestodsimonlarning tuzilishidagi ayrim belgilari. Muhim vakillari, tuzilishi, rivojlanishi.	6
5	O'simliklarda parazitlik qiluvchi chuvalchanglar. Muhim vakillari, ularning rivojlanish tsikllari. Partenogenez.	6
	Jami	48